

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 470 sahifa.
2025-yil, 21-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG’URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IIY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEXANIZMLARI	392
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Хақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Аброрбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ MPI	426
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojjakbar Adxamovich	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna	
O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI.....	454
Suleymanova Shoiri Alavxanovna	
MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O'RNI	459
Alimova Dilduzaxon Rustam qizi	
MEHNAT BOZORINI OPTIMALLASHTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	464
Botirova Sarvinoz Bobir qizi	



MEHNAT BOZORINI OPTIMALLASHTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI

Botirova Sarvinoz Bobir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish” kafedrası o'qituvchisi

Email: botirovasb27@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mehnat bozorini optimallashtirishning O'zbekiston iqtisodiyotidagi makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda 2015–2024-yillar uchun rasmiy statistik ma'lumotlar asosida ekonometrik model qo'llanilib, mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari — bandlik, ish haqi, mehnat unumdorligi, inflyatsiya, raqamli infratuzilma, qayta tayyorlash dasturlari va migratsiyaning iqtisodiy o'sishga ta'siri baholangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mehnat unumdorligi ($\beta = 0.35$) va bandlik darajasi ($\beta = 0.27$) YalM o'sishiga eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatgan, inflyatsiya esa ($\beta = -0.18$) salbiy ta'sir ko'rsatgan. Raqamli infratuzilma ($\beta = 0.14$) va qayta tayyorlash dasturlari ($\beta = 0.10$) iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi zamonaviy omillar sifatida aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida mehnat unumdorligini oshirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish hamda bandlik siyosatini takomillashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, iqtisodiy o'sish, mehnat unumdorligi, bandlik, inflyatsiya, raqamli infratuzilma, inson kapitali, makroiqtisodiy barqarorlik.

Abstract. This article examines the impact of labor market optimization on the macroeconomic stability of Uzbekistan's economy. Based on official statistical data for the period 2015–2024, an econometric model was developed to evaluate the relationship between key labor market indicators — employment, wages, labor productivity, inflation, digital infrastructure, retraining program effectiveness, and migration — and economic growth. The results show that labor productivity ($\beta=0.35$) and employment level ($\beta=0.27$) have the strongest positive effects on GDP growth, while inflation ($\beta=-0.18$) has a negative impact. Digital infrastructure ($\beta=0.14$) and retraining programs ($\beta=0.10$) were identified as modern factors supporting economic resilience. The study concludes that enhancing labor productivity, accelerating digital transformation, investing in human capital, and improving employment policy are key directions for ensuring sustainable economic development in Uzbekistan.

Keywords: labor market, economic growth, labor productivity, employment, inflation, digital infrastructure, human capital, macroeconomic stability.

Аннотация. В данной статье исследуется влияние оптимизации рынка труда на макроэкономическую стабильность экономики Узбекистана. На основе официальных статистических данных за 2015–2024 годы построена эконометрическая модель, в которой оценена взаимосвязь между основными показателями рынка труда — занятостью, заработной платой, производительностью труда, инфляцией, уровнем цифровой инфраструктуры, эффективностью программ переподготовки и миграцией — и экономическим ростом. Результаты показывают, что производительность труда ($\beta=0.35$) и уровень занятости ($\beta=0.27$) оказывают наиболее сильное положительное влияние на рост ВВП, тогда как инфляция ($\beta=-0.18$) действует в противоположном направлении. Цифровая инфраструктура ($\beta=0.14$) и программы переподготовки ($\beta=0.10$) выступают современными факторами, поддерживающими экономическую устойчивость. На основе анализа сделан вывод, что повышение производительности труда, ускорение цифровой трансформации, инвестиции в человеческий капитал и совершенствование политики занятости являются ключевыми направлениями устойчивого развития экономики Узбекистана.

Ключевые слова: рынок труда, экономический рост, производительность труда, занятость, инфляция, цифровая инфраструктура, человеческий капитал, макроэкономическая стабильность.



KIRISH

Mehnat bozorini optimallashtirish mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Chunki samarali bandlik siyosati hamda ishchi kuchi resurslarining oqilona taqsimlanishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtiradi, inflyatsiya va ishsizlik darajasini me'yorida ushlab turadi, shuningdek, aholining real daromadlarini oshiradi. Shu sababli, mehnat bozorining muvozanatli rivojlanishi iqtisodiyotda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehnat bozoridagi institutsional o'zgarishlar va siyosat choralari iqtisodiy o'sish, bandlik hamda inflyatsiya barqarorligi o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni shakllantiradi. Olivier Blanchard 2017-yilda makroiqtisodiy dalillar va mikrodalillarni uzviy bog'lash zarurligini ko'rsatib, mehnat bozoridagi rigidliklar (masalan, ish haqi moslashuvchanligining pastligi yoki ish o'rinlarining sekin moslashuvi) iqtisodiy o'sishning sustlashishiga va bandlik darajasidagi o'zgarishlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. Shu bois, mehnat bozorini optimallashtirish siyosatlari makroiqtisodiy barqarorlikni kuchaytirish uchun monetar hamda fiskal siyosatlar bilan muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Mehnat bozorini optimallashtirishning inson kapitali va faol bo'lish siyosatlari nuqtayi nazaridan James J. Heckman 2006-yilda inson kapitaliga sarmoya kiritishning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy samarasini, xususan mehnat bozorida qatnashuv va ish haqi darajasiga ta'sirini yoritgan. Faol mehnat siyosatlari (yo'naltirilgan ta'lim, qayta tayyorlash va ishga joylashtirish dasturlari) qisqa muddatda xarajatlarni oshirishi mumkin bo'lsa-da, o'rta va uzoq muddatda ishga joylashuv hamda mehnat unumdorligini yaxshilab, budjet barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday siyosatlarning samaradorligi empirik jihatdan mahalliy bozor xususiyatlariga bog'liq bo'lib, davlat dasturlarini loyihalashda mehnat bozorining moslashuvchanligi va institutsional infratuzilma inobatga olinishi zarur.

Mehnat bozoridagi strukturaviy shoklar va tashqi savdo ta'siri masalasida David Autor, David Dorn va Gordon Hanson 2013-yilda o'tkazgan tadqiqot Xitoydan importning o'sishi mahalliy mehnat bozorlarida ish o'rinlari qisqarishi va ish haqi pasayishiga olib kelishini ko'rsatgan. Ushbu natijalar mehnat bozorini optimallashtirish siyosatlari milliy darajada amalga oshirilganda ham mintaqaviy hamda sektoral farqlarni hisobga olish zarurligini bildiradi. Shuningdek, Alan B. Krueger va David Card 1994-yildagi minimum ish haqining ish bilan ta'minlashga ta'siri bo'yicha empirik tadqiqoti ish haqi siyosatlari va bozor moslashuvchanligi o'rtasidagi nozik muvozanatni yoritgan. Shu sababli, siyosatlarni ishlab chiqishda empirik baholash natijalari va kontekstga moslashuvchan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat bozori va ish o'rinlari yaratilishi hamda yo'qolishini tahlil qilishda Mortensen va Pissarides 1994-yilda taklif etgan model muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu model vakansiya darajasi, ishsizlik va ish o'rinlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntiradi hamda mehnat bozorini optimallashtirish choralarining (masalan, ish beruvchilar va ish izlovchilarni bog'lovchi mexanizmlar) samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari ham bu jarayonda muhim o'rin tutadi. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) 2019-yil va undan keyingi yillardagi hisobotlarida mehnat bozorlarini liberallashtirish, faollashtiruvchi siyosat choralarini kuchaytirish hamda ijtimoiy sug'urta tizimlarini muvofiqlashtirish orqali barqaror o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi. Jahon bankining 2019-yilgi World Development Report hisobotida ishning o'zgarishi va raqamli transformatsiya sharoitida mehnat siyosatining moslashuvchanligi hamda investitsiya yo'naltirilgan ta'limning roli bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) 2018–2019-yillardagi hisobotlarida esa ish haqi va ish sharoitlari tendensiyalarini tahlil qilib, mehnat bozorini optimallashtirish siyosatlari ijtimoiy adolatni saqlagan holda amalga oshirilishi lozimligini urg'ulagan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar mehnat bozorini optimallashtirishni makroiqtisodiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirish zarurligini tasdiqlaydi. Siyosatlar ish bilan ta'minlash va mehnat unumdorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi, iqtisodiy sikllarga nisbatan chidamlilikni mustahkamlashi hamda ijtimoiy himoyani saqlagan holda amalga oshirilishi lozim. Mahalliy kontekstda, xususan O'zbekiston kabi iqtisodiy o'sish va strukturaviy o'zgarish bosqichida turgan mamlakatlarda, ushbu yondashuvlar institutsional salohiyat, hududiy tafvutlar va sektorlararo moslashuvni hisobga olgan holda tatbiq etilishi zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro tashkilotlarning (OECD, ILO, Jahon banki) ochiq bazalari, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari hamda ilmiy maqolalardan olingan. Ular iqtisodiy o'sish,

bandlik va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari asosida tizimlashtirildi. Tahlil usullari sifatida korrelyatsion, regressiya va dinamik qatorlar tahlili qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mehnat bozorini optimallashtirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida asosiy makroiqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyati ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanishni, ishsizlikni kamaytirishni va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Bandlik darajasining oshishi yalpi ichki mahsulot hajmining ortishiga, iste'mol va soliqli bazaning kengayishiga olib keladi. Shu orqali fiskal barqarorlik hamda ijtimoiy muvozanat mustahkamlanadi. Mehnat bozorining raqobatbardoshligi va moslashuvchanligi inflyatsion bosimni yumshatib, narxlar barqarorligini ta'minlaydi. Malakali kadrlar tayyorlash, innovatsion kasbiy qayta tayyorlash tizimlarini rivojlantirish va raqamli mehnat platformalarini joriy etish mehnat unumdorligini oshirishning muhim omillaridir.

O'zbekiston tajribasida mehnat bozorini samarali boshqarish "Yangi O'zbekiston" islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Bandlik darajasining oshishi yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmini kengaytiradi, iste'mol bazasini boyitadi hamda soliq tushumlarini ko'paytiradi. Shu bilan birga, mehnat unumdorligining o'sishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, bu esa inflyatsion bosimni yumshatadi va narxlar barqarorligini ta'minlaydi. Raqamli mehnat tizimlarini joriy etish, masofaviy bandlik shakllarining kengayishi hamda "aqlli" platformalar orqali ishchi kuchi taqsimotini optimallashtirish mehnat bozorining zamonaviy shaklini shakllantirmoqda.

Mazkur jarayonni tahlil qilish uchun mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari bilan makroiqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik ekonometrik model orqali baholandi. Tadqiqotda quyidagi modeldan foydalanildi (1-jadval):

$$GDPI_t = \beta_0 + \beta_1 EMP_t + \beta_2 WAGE_t + \beta_3 PROD_t + \beta_4 INF_t + \beta_5 DIGI_t + \beta_6 TRAIN_t + \varepsilon_t$$

Bu yerda:

GDP – real YaIM o'sish sur'ati,

EMP – bandlik darajasi,

WAGE– o'rtacha ish haqi,

PROD – mehnat unumdorligi,

INF – inflyatsiya darajasi,

DIGI – raqamli mehnat infratuzilmasi indeksi,

TRAIN – qayta tayyorlash dasturlari samaradorligi indeksi.

1-jadval. Korrelyatsiya matritsasi¹

O'zgaruvchi	GDP	EMP	WAGE	PROD	INF	DIGI	TRAIN	MIGR
GDP_g	1.00	0.58	0.46	0.61	-0.35	0.42	0.39	0.30
EMP	0.58	1.00	0.40	0.52	-0.28	0.33	0.35	0.27
WAGE	0.46	0.40	1.00	0.45	0.10	0.29	0.31	0.12
PROD	0.61	0.52	0.45	1.00	-0.42	0.48	0.36	0.18
INF	-0.35	-0.28	0.10	-0.42	1.00	-0.22	-0.17	-0.09
DIGI	0.42	0.33	0.29	0.48	-0.22	1.00	0.41	0.15
TRAIN	0.39	0.35	0.31	0.36	-0.17	0.41	1.00	0.11
MIGR	0.30	0.27	0.12	0.18	-0.09	0.15	0.11	1.00

Korrelyatsiya natijalariga ko'ra, YaIM o'sishi bandlik ($r = 0.58$) va mehnat unumdorligi ($r = 0.61$) bilan yuqori darajada ijobiy bog'liq. Bu shuni anglatadiki, ishchi kuchining faol ishtiroki va samarali mehnat natijadorligi mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish hajmining ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli infratuzilma ($r = 0.42$) ham iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydigan muhim omil sifatida qayd etilgan, chunki raqamlashtirish jarayonlari mehnat bozorining moslashuvchanligini oshiradi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi hamda ishchi kuchini yangi sektorlarga yo'naltirish imkonini beradi.

Ayni paytda, inflyatsiya ($r = -0.35$) ko'rsatkichining salbiy bog'liqligi shuni bildiradiki, narxlar barqarorligi buzilganda iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlashadi. Ushbu bog'liqlik O'zbekiston iqtisodiyotida makroiqtisodiy

1 Statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



muvozanatni saqlash uchun pul-kredit siyosati bilan bandlik siyosati o'rtasida muvofiqlikni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi (2-jadval).


2-jadval. Regressiya natijalari²

O'zgaruvchi	Koeff.	Std. xatolik	t-stat	p-qiymat
EMP	0.27	0.09	3.0	0.004
WAGE	0.08	0.04	2.0	0.052
PROD	0.35	0.11	3.2	0.003
INF	-0.18	0.07	-2.6	0.013
DIGI	0.14	0.06	2.3	0.028
TRAIN	0.10	0.05	2.1	0.041
MIGR	0.05	0.03	1.7	0.096
CONST	1.20	0.52	2.3	0.027

2015–2024-yillar uchun O'zbekistonning rasmiy statistik ma'lumotlari asosida baholangan model mehnat bozorining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini aniqlash imkonini berdi. Natijalarga ko'ra, iqtisodiy o'sish (YalM) asosan mehnat unumdorligi ($\beta = 0.35$, $p < 0.01$) va bandlik darajasi ($\beta = 0.27$, $p < 0.01$) bilan eng kuchli ijobiy bog'liqlikka ega. Bu holat ishlab chiqarish samaradorligi hamda ishchi kuchi ishtirokining ortishi iqtisodiy faollikni kuchaytirishini ko'rsatadi.

Inflyatsiya ($\beta = -0.18$, $p < 0.05$) iqtisodiy o'sishga teskari ta'sir ko'rsatadi, ya'ni narxlar barqarorligi buzilganda ishlab chiqarish va iste'mol hajmi pasayadi. O'rtacha ish haqi ($\beta = 0.08$) iqtisodiy o'sishga ijobiy, biroq cheklangan ta'sir ko'rsatib, talabni oshirsa-da, inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin. Raqamli infratuzilma ($\beta = 0.14$, $p < 0.05$) va qayta tayyorlash dasturlari ($\beta = 0.10$, $p < 0.05$) iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi zamonaviy omillar bo'lib, mehnat bozorining moslashuvchanligini hamda inson kapitalining sifatini oshiradi.

Migratsiya ($\beta = 0.05$) ijobiy, ammo zaif ta'sir ko'rsatib, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qiladi. Modelning determinatsiya koeffitsiyenti ($R^2 = 0.67$) mehnat bozoriga oid omillar iqtisodiy o'sishning qariyb 67 foizini tushuntirishini ko'rsatadi. Ushbu natijalar mehnat bozorini optimallashtirish, unumdorlikni oshirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va inson kapitaliga sarmoya kiritish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy yo'nalishlar ekanini tasdiqlaydi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston mehnat bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'llari³

O'zbekiston mehnat bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiy o'sishni tezlashtirish va inflyatsion xavflarni kamaytirish uchun kompleks hamda tizimli siyosat yuritilishi zarur. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mehnat unumdorligini oshirish, bandlik siyosatini takomillashtirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va inson kapitaliga sarmoya kiritish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi asosiy yo'nalishlardir.

² Statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

³ Muallif ishlanmasi.

Avvalo, mehnat unumdorligini oshirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish va raqamli ishlab chiqarish tizimlarini keng joriy etish zarur. Korxonalarda raqamli boshqaruv madaniyatini shakllantirish hamda xodimlarning texnik malakasini muntazam oshirib borish iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Bandlik siyosatini takomillashtirish ham o'sishning muhim omillaridan biri bo'lib, yangi ish o'rinlarini yaratish, xizmatlar sektorini kengaytirish, mintaqaviy bandlik dasturlarini qo'llab-quvvatlash va kichik biznes hamda startaplar uchun qulay muhit yaratish talab etiladi.

Shu bilan birga, inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish mehnat bozorining sog'lom ishlashi uchun muhimdir. Ish haqi o'sishini ishlab chiqarish samaradorligi bilan uyg'unlashtirish, narxlar barqarorligini saqlash orqali iqtisodiy o'sishning sifatini yaxshilash mumkin. Ish haqi siyosati real daromadlarni oshirish bilan birga inflyatsion bosimni keltirib chiqarmasligi uchun ishlab chiqarish samaradorligiga tayanishi, davlat va xususiy sektor o'rtasida muvozanatli tarzda olib borilishi lozim.

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish mehnat bozorining moslashuvchanligini oshirib, masofaviy bandlik imkoniyatlarini kengaytiradi. "Raqamli iqtisodiyot – 2030" strategiyasi doirasida onlayn bandlik tizimlarini rivojlantirish, ishga joylashish jarayonlarini raqamlashtirish va mehnat shartnomalarini elektron shaklda yuritish mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini kuchaytirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish markazlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalar bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etish hamda "hayot davomida ta'lim olish" tamoyilini amaliyotga joriy etish mehnat unumdorligini oshiradi va inson kapitalining sifatini yaxshilaydi.

Hududiy migratsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ichki mehnat migratsiyasini tartibga solish, mintaqaviy infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiy imkoniyatlarni teng taqsimlash orqali hududlar o'rtasidagi tafovutlar kamayadi hamda resurslardan to'liq va samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Regressiya natijalari mehnat unumdorligi, bandlik, raqamli infratuzilma va inson kapitaliga sarmoya kiritishning iqtisodiy o'sishga kuchli ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, inflyatsiyani nazorat qilish va ish haqi siyosatini muvozanatli olib borish barqaror iqtisodiy rivojlanishning zaruriy shartlaridan biridir. Mehnat bozorini optimallashtirish orqali O'zbekiston iqtisodiy tizimi yanada raqobatbardosh, samarali va ijtimoiy jihatdan barqaror holatga erishadi. Shu sababli, davlat siyosatining asosiy e'tibori mehnat unumdorligi hamda inson kapitali o'sishini ta'minlashga, raqamli transformatsiyani jadallashtirishga va barqaror bandlik muhitini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. — T.: Prezident.uz, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. *O'zbekiston mehnat bozori holati va istiqbollari to'g'risida hisobot*. — Toshkent, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. *O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichlari (2015–2024-yillar)*. — Toshkent, 2025.
4. International Monetary Fund (IMF). *Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation Staff Report*. — Washington D.C., IMF Country Report No. 24/112, 2024.
5. World Bank. *Uzbekistan Jobs, Skills, and Labor Market Report*. — Washington D.C.: The World Bank, 2023.
6. OECD. *Employment Outlook 2024: The Future of Work in the Digital Era*. — Paris: OECD Publishing, 2024.
7. David Card va Alan B. Krueger. *Minimum Wages and Employment: A Case Study of the Fast-Food Industry in New Jersey and Pennsylvania*. 1994.
8. David Autor, David Dorn va Gordon Hanson. *The China Syndrome: Local Labor Market Effects of Import Competition in the United States*. 2013.
9. Christopher A. Pissarides va Dale T. Mortensen. *Job Creation and Job Destruction in the Theory of Unemployment*. 1994.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100